O‘ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNING ROLI

Jumaqulov Javohir Akbar o‘g‘li
JIDU Jahon iqtisodiyoti mutaxassisligi magistranti
jumaqulovjavohir1@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.21530514

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energetika sohasining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlari hamda ularning iqtisodiy va ekologik samaradorligi kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda quyosh, shamol va gidroenergetika quvvatlarining o‘sish dinamikasi, elektr energiyasi ishlab chiqarish tarkibidagi o‘zgarishlar va 2030-yilgacha belgilangan strategik maqsadlar yoritiladi. Davlat-xususiy sheriklik, uzoq muddatli elektr energiyasini xarid qilish shartnomalari va hukumat kafolatlari kabi investitsion mexanizmlarning ahamiyati ochib beriladi. Xalqaro investorlar va moliya institutlarining energetika transformatsiyasidagi o‘rni, xorijiy kapitalning texnologiyalar transferi, tabiiy gaz tejalishi, yangi ish o‘rinlari yaratilishi hamda zararli emissiyalarni kamaytirishga ta’siri baholanadi. Elektr tarmoqlarining yetarli rivojlanmaganligi, mahalliylashtirish darajasining pastligi, valyuta va investitsion risklar kabi mavjud muammolar aniqlanib, qayta tiklanuvchi energetikani barqaror rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari asoslab beriladi.
KALIT SO‘ZLAR: qayta tiklanuvchi energiya, xorijiy investitsiyalar, yashil energetika, quyosh energetikasi, shamol energetikasi, davlat-xususiy sheriklik, energiya xavfsizligi, yashil iqtisodiyot, ekologik barqarorlik, O‘zbekiston.

KIRISH: XXI asrda global energetika tizimida yuz berayotgan tarkibiy o‘zgarishlar qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish masalasini iqtisodiy, ekologik va strategik siyosatning yo‘nalishlaridan biriga aylantirdi. Iqlim o‘zgarishi oqibatlarining kuchayishi, uglevodorod resurslarining cheklanganligi, energiyaga talabning ortishi hamda energiya xavfsizligini ta’minlash zarurati davlatlarni an’anaviy energetika modelidan barqaror va past uglerodli tizimga o‘tishga undamoqda. Mazkur tendensiyalar O‘zbekiston uchun ham alohida dolzarblik kasb etadi. Mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanishi va aholi sonining o‘sishi elektr energiyasiga talabni oshirayotgan bir sharoitda mavjud energetika tizimini diversifikatsiya qilish strategik zaruratga aylanmoqda. O‘zbekistonning yuqori quyosh radiatsiyasi va katta shamol energetikasi salohiyatiga egaligi qayta tiklanuvchi energiyani iqtisodiy rivojlanishning istiqbolli manbasiga aylantiradi. Biroq ushbu salohiyatdan samarali foydalanish yirik kapital mablag‘lar, zamonaviy texnologiyalar va ilg‘or boshqaruv tajribasini talab etadi. Shu jihatdan xorijiy investitsiyalar energetika transformatsiyasini jadallashtirishning muhim moliyaviy va texnologik omili sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur maqolaning dolzarbligi O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energetikaning rivojlanish dinamikasini xorijiy investitsiyalar bilan o‘zaro bog‘liqlikda baholash zarurati bilan belgilanadi.

METODLAR: Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, kontent-tahlil hamda dinamik tahlil usullaridan foydalanildi. Qayta tiklanuvchi energiya quvvatlari, elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi va investitsiya oqimlarining yillar bo‘yicha o‘zgarishi statistik hamda dinamik tahlil asosida baholandi. Normativ-huquqiy hujjatlar va davlat strategiyalari kontent-tahlil usulida o‘rganildi. Yirik xorijiy investorlarning loyihalari qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqotning axborot bazasini rasmiy statistik ma’lumotlar, davlat organlari materiallari, xalqaro moliya institutlari hisobotlari hamda sohaga oid ilmiy va tahliliy manbalar tashkil etdi.

TAHLIL VA NATIJALAR: So‘nggi yillarda O‘zbekistonda energetika tizimini modernizatsiya qilish va uni diversifikatsiya etish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Mamlakatda elektr energiyasiga bo‘lgan talabning izchil ortib borishi, tabiiy gaz ishlab chiqarish

hajmining ichki iste'mol sur'atlaridan ortda qolishi, global iqlim o'zgarishlari hamda xalqaro ekologik majburiyatlarning kuchayishi qayta tiklanuvchi energiya manbalarini jadal rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirdi. Shu sababli quyosh, shamol va gidroenergetikani rivojlantirish davlat energetika strategiyasining muhim qismiga aylandi. Mazkur jarayonda xorijiy investitsiyalar alohida ahamiyat kasb etmoqda, chunki qayta tiklanuvchi energetika obyektlarini barpo etish yuqori kapital xarajatlarini talab qiladi hamda zamonaviy texnologiyalar, ilg'or boshqaruv tajribasi va xalqaro moliyaviy resurslarsiz ushbu maqsadlarga qisqa muddatlarda erishish murakkab hisoblanadi.

O'zbekiston qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirish bo'yicha qisqa vaqt ichida sezilarli natijalarga erishdi. 2025-yil yakunlariga ko'ra mamlakat elektr energetikasi tizimining umumiy o'rnatilgan quvvati 25 797 Mvni tashkil etdi. Mazkur quvvatning 17 551 Mvti issiqlik elektr stansiyalari va markazlariga, 2 441 Mvti yirik gidroelektr stansiyalariga, 3 930 Mvti quyosh fotoelektr stansiyalariga, 1 652 Mvti shamol elektr stansiyalariga hamda 223 Mvti blok-stansiyalarga to'g'ri keladi[1]. Natijada quyosh va shamol elektr stansiyalarining umumiy quvvati 5 582 Mvtga, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining jami quvvati esa taxminan 8 023 Mvtga yetib, umumiy o'rnatilgan quvvatning qariyb 31 foizini tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkichlar 2019–2020-yillar bilan taqqoslanganda sezilarli darajada oshgan, chunki o'sha davrda yirik quyosh elektr stansiyalari deyarli mavjud emas edi, shamol energetikasi esa endigina shakllanayotgan tarmoq hisoblanardi.

Elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmlaridagi o'sish ham qayta tiklanuvchi energetika rivojlanishining amaliy natijasini yaqqol namoyon etmoqda. 2025-yilda mamlakatda jami 86,7 milliard kVt·soat elektr energiyasi ishlab chiqarildi, bu esa oldingi yilga nisbatan 6 foiz ko'p. Mazkur hajmning 10,5 milliard kVt·soatdan ortig'i quyosh va shamol elektr stansiyalari hissasiga to'g'ri keldi. Bu ko'rsatkich 2024-yildagi 4,8 milliard kVt·soatga nisbatan ikki baravardan ortiq o'sishni anglatadi[2]. Gidroelektr stansiyalarini ham hisobga olganda, "yashil" energiya ishlab chiqarish hajmi 16,8 milliard kVt·soatga yetib, mamlakat umumiy elektr energiyasi ishlab chiqarishining qariyb 19–20 foizini tashkil etdi[3]. 2025-yilning o'zida umumiy quvvati 4 647 MVt bo'lgan 42 ta yangi generatsiya obyektining foydalanishga topshirilgani, 1 413 MVt quvvatga ega beshta quyosh va 752 MVt quvvatli to'rtta shamol elektr stansiyasining ishga tushirilgani mamlakatda amalga oshirilayotgan energetika islohotlarining amaliy samarasini ko'rsatadi[4].

Qayta tiklanuvchi energetika ulushining o'sish sur'ati uning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish zaruratini ham yuzaga keltirmoqda. O'rnatilgan quvvat tarkibida qayta tiklanuvchi energiyaning ulushi 31 foizni tashkil etayotgan bo'lsa-da, ishlab chiqarishdagi ulushi 20 foiz atrofida qolmoqda. Bunga asosiy sabab quyosh va shamol elektr stansiyalarining ishlatilish koeffitsiyenti (capacity factor) issiqlik elektr stansiyalariga nisbatan pastroq ekanligidir. Biroq statistik ma'lumotlar ushbu tarmoqning rivojlanish sur'ati juda yuqori ekanini tasdiqlaydi. 2022-yilda quyosh va shamol elektr stansiyalari atigi 434 million kVt·soat elektr energiyasi ishlab chiqargan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 577 million kVt·soatga[5], 2024-yilda 4,8 milliard kVt·soatga, 2025-yilda esa 10,5 milliard kVt·soatdan ortiq darajaga yetdi[6]. Mazkur eksponensial o'sish elektr uzatish tarmoqlarini modernizatsiya qilish va energiya saqlash tizimlarini keng joriy etishni strategik zaruratga aylantirmoqda.

Qayta tiklanuvchi energetika sohasining bunday jadal rivojlanishida davlat tomonidan yaratilgan huquqiy va institutsional muhit muhim o'rin tutadi. 2019-yildan boshlab qabul qilingan normativ-

[1] Gazeta.uz. (2026, 5 yanvar). O'zbekistonda 2025-yilda quyosh va shamol orqali elektr energiyasi ishlab chiqarish 2 karra ko'paydi — Energetika vazirligi. https://www.gazeta.uz/oz/2026/01/05/energy/

[2] "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" AJ. (2026, 1 yanvar). 2025-yilda elektr energiyasini ishlab chiqarish. https://www.uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/7945

[3] UZ24. (2026, 10 iyun). O'zbekistonda bir milliard kVt/soat "yashil" energiya ishlab chiqarish 24 kunga tushdi. https://uz24.uz/uz/articles/green-26-6-10

[4] Spot. (2026, 3 yanvar). O'zbekistonda elektr energiyasi ishlab chiqarish 6%ga, quyosh va shamol generatsiyasi esa ikki baravarga oshdi. https://www.spot.uz/oz/2026/01/03/electricity-generation/

[5] Yuz.uz. (2024, 21 oktabr). O'zbekistonda quyosh va shamol elektr stansiyalari 4 mlrd kVt·soat elektr energiyasi ishlab chiqardi. https://yuz.uz/uz/news/ozbekistonda-quyosh-va-shamol-elektr-stantsiyalari-4-mlrd-kvtsoat-elektr-energiyasi-ishlab-chiqardi

[6] UzDaily. (2026, 13 fevral). O'zbekistondagi quyosh va shamol elektr stansiyalari 2026 yilda 1 mlrd kVt·soat "yashil" energiya ishlab chiqardi. https://www.uzdaily.uz/uz/ozbekistondagi-quyosh-va-shamol-elektr-stansiyalari-2026-yilda-1-mlrd-kvtsoat-yashil-energiya-ishlab-chiqardi/

huquqiy hujjatlar xorijiy investorlar uchun barqaror investitsiya muhitini shakllantirdi. 2019-yil may oyida qabul qilingan “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonun qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqaruvchilari uchun yer va mulk soliqlari bo‘yicha imtiyozlarni belgilab berdi[7]. Xuddi shu yilda kuchga kirgan hamda 2021-yilda sezilarli darajada takomillashtirilgan “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonun energetika loyihalarini davlat va xususiy sektor hamkorligida amalga oshirishning asosiy mexanizmiga aylandi[8].

“Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun orqali xorijiy investorlar uchun qo‘shimcha iqtisodiy rag‘batlantirish choralari belgilandi[9]. Quyosh, shamol va kichik gidroelektr stansiyalarini quruvchi korxonalar uchun foyda hamda mulk solig‘ining 50 foizga kamaytirilishi nazarda tutildi[10]. Investorlar uchun eng muhim kafolat uzoq muddatli elektr energiyasini xarid qilish shartnomalari — Power Purchase Agreement (PPA) hamda Government Support Agreement (GSA) tizimining joriy etilishi bo‘ldi. Odatda 25 yil muddatga tuziladigan PPA shartnomalari investorlarga ishlab chiqarilgan elektr energiyasini oldindan belgilangan tarif asosida sotish imkonini berib, investitsiyalarning iqtisodiy barqarorligini ta’minlaydi. GSA mexanizmi esa siyosiy, institutsional va valyuta tavakkalchiliklarini kamaytirishga xizmat qiladi. 2022-yilda valyuta tartibga solish tizimiga kiritilgan o‘zgartirishlar natijasida PPP loyihalari doirasidagi tariflarni xorijiy valyutaga bog‘lash imkoniyatining yaratilishi xalqaro investorlarning ishonchini yanada mustahkamladi.

Qayta tiklanuvchi energetika loyihalarini moliyalashtirish manbalari ham bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilinmoqda. Asosiy ulush to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Osiyo taraqqiyot banki (OTB) va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YeTTB) kabi xalqaro moliya institutlarining kreditlari, konsession kelishuvlar hamda bosqichma-bosqich joriy etilayotgan yashil obligatsiyalar ham muhim moliyalashtirish vositalariga aylanmoqda. Ochiq va raqobatli tenderlar asosida shakllangan elektr energiyasi tariflarining dastlabki loyihalarda 2,5–3 AQSh senti/kVt·soat atrofida bo‘lishi jahon miqyosidagi eng past natijalardan biri sifatida e’tirof etildi[11]. Mazkur mexanizm investorlarning manfaatdorligini saqlab qolish bilan birga davlat byudjeti xarajatlarini ham minimallashtirish imkonini berdi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan eng yirik strategik investorlar orasida Birlashgan Arab Amirliklarining “Masdar” va Saudiya Arabistonining “ACWA Power” kompaniyalari yetakchi o‘rin egallaydi. “Masdar” kompaniyasi 2019-yilda mamlakatga kirib kelgan birinchi yirik xorijiy investor sifatida Navoiy viloyatida 100 MVt quvvatga ega “Nur Navoiy” quyosh elektr stansiyasini foydalanishga topshirdi[12]. Mazkur loyiha O‘zbekistondagi ilk yirik davlat-xususiy sheriklik asosidagi quyosh energetikasi loyihasi sifatida alohida tarixiy ahamiyat kasb etdi. Keyingi yillarda kompaniyaning investitsiya portfeli taxminan 2 GW quvvatgacha kengaydi, umumiy investitsiyalar hajmi esa 2 milliard AQSh dollaridan oshdi[13]. Hozirgi kungacha “Masdar” bilan hamkorlikda umumiy quvvati 1 247 MVt bo‘lgan beshta quyosh elektr stansiyasi hamda 500 MVt quvvatli shamol elektr stansiyasi ishga tushirildi[14]. Kompaniya Qashqadaryo viloyatidagi 300 MVt quvvatga ega G‘uzor quyosh elektr

[7] Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida (O‘RQ-539-son Qonun). LexUZ. https://lex.uz/ru/docs/-4346831

[8] Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida (O‘RQ-537-son Qonun). LexUZ. https://lex.uz/uz/docs/-4329270

[9] Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida. LexUZ. https://lex.uz/mact/-4664142

[10] Nurberdiyev, S. (2022, September 14). Quyosh va shamol elektr stansiyalarini xarid qilganlik uchun kompensatsiya to‘lanadi. NORMA.UZ. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/quesh_va_shamol_elektr_stanciyalarini_harid_qilganlik_uchun_kompensaciya_tulanadi

[11] UzDaily. (2020). Uzbekistan plans to build photovoltaic power plants in the country with a total capacity of 5,000 MW. https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistan-plans-to-build-photovoltaic-power-plants-in-the-country-with-a-total-capacity-of-5000-mw/ ; ACWA Power. (2021). ACWA Power signs agreement for 100MW Uzbekistan wind power project. https://acwapower.com/en/media-center/latest-news/acwa-power-signs-agreement-for-100mw-uzbekistan-wind-power-project/

[12] Masdar. (2023). Nur Navoi solar project: Navoi region, Uzbekistan. https://masdar.ae/-/media/corporate-revamp/projects/downloads/uzbekistan/2023/nur-navoi-solar-project_en.pdf ; Asian Development Bank. (n.d.). “Nur Navoi Solar” Foreign Enterprise Limited Liability Company: Navoi Solar Power Project (Uzbekistan). https://www.adb.org/sites/default/files/project-documents/53340/53340-001-xarr-en.pdf

[13] UzDaily. (2026, January 15). Masdar secures international financing for new renewable energy project in Uzbekistan. https://www.uzdaily.uz/en/masdar-secures-international-financing-for-new-renewable-energy-project-in-uzbekistan/

[14] Masdar. (2025, November 11). Masdar signs landmark agreement for Uzbekistan’s largest standalone battery energy storage project. https://masdar.ae/en/news/newsroom/masdar-signs-landmark-agreement-for-uzbekistans-largest-standalone-battery-energy-storage-project

stansiyasi va batareya energiya saqlash tizimi, Zarafshon shamol elektr stansiyasi hamda boshqa yirik loyihalarni amalga oshirmoqda.

“ACWA Power” kompaniyasi esa O‘zbekistondagi qayta tiklanuvchi energetika sohasining eng yirik xorijiy investori hisoblanadi. 2020-yildan boshlab kompaniya tomonidan mamlakat energetika tarmog‘iga 15 milliard AQSh dollaridan ortiq investitsiya kiritildi hamda yaqin yillarda qo‘shimcha 5–6 milliard AQSh dollari miqdorida mablag‘ yo‘naltirilishi rejalashtirilmoqda. Natijada kompaniyaning umumiy investitsiya majburiyatlari o‘n yillik yakuniga borib 25 milliard AQSh dollariga yetishi kutilmoqda[15]. Umuman olganda, “Masdar” va “ACWA Power” kompaniyalari tomonidan O‘zbekistonning yashil energetika sektoriga qabul qilingan investitsiya majburiyatlari 20 milliard AQSh dollaridan oshgani mamlakatda amalga oshirilayotgan energetika transformatsiyasining xalqaro miqyosdagi ishonchliligini tasdiqlaydi.

Mazkur kompaniyalardan tashqari, Fransiyaning “Voltalia” kompaniyasi Artemisya gibrid klasteri doirasida 126 MVt quyosh elektr stansiyasi, 300 MVt shamol elektr stansiyasi hamda energiya saqlash tizimlarini o‘z ichiga olgan loyihalarni amalga oshirmoqda[16]. “TotalEnergies” kompaniyasi ham mamlakat qayta tiklanuvchi energetika bozorida faol ishtirok etayotgan strategik investorlar qatoriga kiradi. Xitoy kompaniyalari esa asosan quyosh panellari, shamol turbinalari, invertorlar va boshqa zamonaviy uskunalarni yetkazib berish, investitsiya loyihalarida ishtirok etish orqali sohaning texnologik rivojlanishiga hissa qo‘shmoqda. Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki nafaqat moliyalashtirish, balki tender jarayonlarini tashkil etish, texnik maslahatlar berish hamda investitsiya risklarini kamaytirish orqali ham muhim rol o‘ynamoqda. Scaling Solar dasturi doirasida amalga oshirilgan tenderlar natijasida xalqaro standartlarga javob beruvchi va iqtisodiy jihatdan samarali loyihalar hayotga tatbiq etildi.

Qayta tiklanuvchi energetika obyektlarining hududiy joylashuvi mamlakatning tabiiy resurs salohiyatiga mos ravishda shakllangan. Quyosh nurlanishi yuqori hamda shamol resurslari qulay bo‘lgan Navoiy, Buxoro, Qashqadaryo, Jizzax, Samarqand va Zarafshon hududlari asosiy investitsiya markazlariga aylangan. Aynan ushbu hududlarda 2025-yilda foydalanishga topshirilgan umumiy quvvati 4 647 MVt bo‘lgan 42 ta yangi generatsiya obyektining asosiy qismi barpo etildi. Bu loyihalarning katta qismi xorijiy investorlar ishtirokida amalga oshirilgani investitsiya siyosatining amaliy samaradorligini yaqqol namoyon etadi.

Moliyaviy resurslardan tashqari xorijiy investorlar ilg‘or texnologiyalar va zamonaviy boshqaruv tajribasini ham olib kirishmoqda. Ko‘rfaz arab mamlakatlari kompaniyalari loyiha ishlab chiqish, muhandislik yechimlari, qurilish, ekspluatatsiya va energiya saqlash tizimlarini boshqarish bo‘yicha xalqaro standartlarni joriy etmoqda. Natijada elektr stansiyalarining texnik ishonchliligi, ishlab chiqarish samaradorligi va ekspluatatsiya xarajatlarini optimallashtirish imkoniyatlari sezilarli darajada yaxshilanmoqda.

Xorijiy investitsiyalarning natijalaridan biri mamlakat energiya xavfsizligini mustahkamlashdir. Quyosh va shamol elektr stansiyalari ishga tushirilishi natijasida tabiiy gaz iste’moli bosqichma-bosqich qisqarib bormoqda. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2025-yilning dastlabki o‘n oyida yashil energetika hisobidan taxminan 2,73 milliard kub metr tabiiy gaz tejab qolindi[17]. Yil yakunlari bo‘yicha ushbu ko‘rsatkichning 3 milliard kub metrdan oshgani ehtimoli yuqori. Tejalgan gaz resurslarini eksport qilish yoki yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi sanoat tarmoqlariga yo‘naltirish imkoniyati mamlakat iqtisodiy manfaatlari jihatidan strategik ahamiyat kasb etadi.

Qayta tiklanuvchi energetika loyihalarining ijtimoiy ta’siri ham sezilarli darajada ortib bormoqda. Yirik elektr stansiyalari qurilishi davomida minglab vaqtinchalik ish o‘rinlari yaratilmoqda, foydalanishga topshirilgandan so‘ng esa yuzlab yuqori malakali doimiy ish o‘rinlari tashkil etilmoqda. “Masdar” va “ACWA Power” kompaniyalari tomonidan mahalliy mutaxassislarni tayyorlash

[15] The Caspian Post. (2025, June 23). Saudi’s ACWA Power expands into Uzbekistan’s green energy sector. https://caspianpost.com/energy/saudi-s-acwa-power-expands-into-uzbekistan-s-green-energy-sector

[16] Газета.uz. (2025, 12 марта). Voltalia заключила долгосрочное соглашение о продаже электроэнергии в Узбекистане. https://www.gazeta.uz/ru/2025/03/12/voltalia-uzbekistan/

[17] Abdushukurova, R. (2025, 22 oktabr). O‘zbekistonda “yashil” energiya ishlab chiqarish 9 mlrd kVt/soatga yetdi. Daryo.uz. https://daryo.uz/2025/10/22/ozbekistonda-yashil-energiya-ishlab-chiqarish-9-mlrd-kvtsoatga-yetdi/

dasturlarining yo‘lga qo‘yilishi, nazorat markazlari hamda texnik xizmat ko‘rsatish tizimlarida o‘zbek muhandislarining faol ishtiroki milliy kadrlar salohiyatining rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shmoqda.

Qayta tiklanuvchi energetikaga yo‘naltirilayotgan xorijiy investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotiga ko‘p qirrali ta’sir ko‘rsatmoqda. Investitsiyalar hajmining ortishi qurilish, transport, logistika, xizmat ko‘rsatish va sanoatning boshqa tarmoqlarida iqtisodiy faollikni oshirmoqda. Yashil elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmining ko‘payishi uzoq muddatli istiqbolda eksport salohiyatini shakllantirmoqda. O‘zbekiston hukumati tomonidan Yevropa yo‘nalishidagi “yashil koridor” loyihasi orqali ortiqcha elektr energiyasini eksport qilish tashabbusining ilgari surilishi mamlakatning valyuta tushumlarini diversifikatsiya qilish uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Dastlab investorlarga berilgan soliq imtiyozlariga qaramasdan, uzoq muddatda elektr stansiyalarining barqaror faoliyati soliq bazasini kengaytirib, davlat byudjeti daromadlarining oshishiga xizmat qiladi.

Ekologik jihatdan ham mazkur investitsiyalar yirik natijalarni bermoqda. 2026-yil boshidan buyon quyosh va shamol elektr stansiyalari tomonidan 4 milliard kVt·soatdan ortiq elektr energiyasi ishlab chiqarildi. Agar ushbu energiya an’anaviy issiqlik elektr stansiyalarida ishlab chiqarilganida, atmosferaga chiqariladigan karbonat angidrid va boshqa zararli moddalar hajmi ancha yuqori bo‘lar edi. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 14-may holatiga ko‘ra, yashil energetika hisobidan 2,3 million tonnaga yaqin zararli chiqindilar atmosferaga chiqarilishining oldi olindi[18]. Bu natijalar O‘zbekistonning Parij iqlim kelishuvi doirasidagi xalqaro majburiyatlarini bajarish, issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish hamda ekologik barqarorlikni ta’minlash yo‘lidagi qadamlardan biri hisoblanadi.

Mavjud yutuqlar bilan bir qatorda ayrim tizimli muammolar ham saqlanib qolmoqda. Elektr uzatish tarmoqlari va podstansiyalarning mavjud quvvatlari yangi ishlab chiqarish obyektlarini to‘liq integratsiya qilish uchun yetarli emas. Ko‘pgina quyosh va shamol elektr stansiyalari iste’mol markazlaridan uzoq hududlarda joylashgani sababli uzatish tarmoqlarini modernizatsiya qilish va yangi infratuzilma qurish zarurati ortmoqda. Ikkinchi muammo mahalliylashtirish darajasining nisbatan pastligi bilan bog‘liq. Hozirgi vaqtda quyosh panellari, shamol turbinalari, invertorlar va boshqa asosiy texnologik uskunalarning katta qismi import qilinmoqda. Bu esa mahalliy qo‘shilgan qiymatning oshishini cheklaydi. Uzoq muddatli investitsiyalar uchun valyuta tavakkalchiligi, tarif siyosatining barqarorligi hamda loyihalarni amalga oshirish muddatlarining cho‘zilishi investorlar tomonidan e’tibor qaratilayotgan omillar qatorida qolmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida elektr uzatish tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish, energiya saqlash tizimlarini kengaytirish, mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish, texnik ta’lim va muhandislik kadrlarini tayyorlashni kuchaytirish zarur. Yashil obligatsiyalar, yashil banklar va boshqa innovatsion moliyalashtirish instrumentlarini rivojlantirish orqali investitsiya manbalarini diversifikatsiya qilish maqsadga muvofiq.

2030-yilgacha 27 GW atrofidagi qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarini ishga tushirish rejalashtirilayotganligi hisobga olinsa, mazkur loyihalarning asosiy qismi ham xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilishi kutilmoqda[19]. Shu bois davlat va investorlar o‘rtasida risklarni adolatli taqsimlash, mahalliy kontent ulushini bosqichma-bosqich oshirish hamda investitsiya muhitining barqarorligini ta’minlash strategik ahamiyat kasb etadi.

XULOSA: O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energetika sohasiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish samaradorligini oshirish uchun bir qator ustuvor chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq. Quyosh va shamol elektr stansiyalarining ortib borayotgan quvvatlarini yagona energetika tizimiga barqaror integratsiya qilish uchun elektr uzatish tarmoqlari, transformator podstansiyalari va raqamli boshqaruv infratuzilmasini jadal modernizatsiya qilish zarur. Qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarishning o‘zgaruvchan xususiyatini muvozanatlashtirish maqsadida batareya energiya saqlash tizimlarini kengaytirish va ushbu yo‘nalishdagi investitsiya loyihalarini alohida rag‘batlantirish lozim. Xorijiy investorlar uchun taqdim etiladigan soliq va bojxona imtiyozlarini mahalliylashtirish darajasi,

[18] O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi. (2026, 14 May). Kun raqami: “Yashil” energiya 4 mlrd kVt·soatga yetdi — bu o‘tgan yilning mos davridagidan 29%ga ko‘p. https://gov.uz/oz/minenergy/news/view/165913

[19] Enerdata. (2024, January 23). Uzbekistan targets 27 GW of renewable capacity, 40% in power generation by 2030. https://www.enerdata.net/publications/daily-energy-news/uzbekistan-targets-27-gw-renewable-capacity-40-power-generation-2030.html

texnologiyalar transferi hamda mahalliy mutaxassislarni tayyorlash ko‘rsatkichlari bilan bog‘lash tavsiya etiladi. Bu quyosh panellari, invertorlar va boshqa energetika uskunalarini mamlakat ichida ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi. Xorijiy kapital manbalarini diversifikatsiya qilish maqsadida yashil obligatsiyalar, imtiyozli yashil kreditlar va boshqa innovatsion moliyaviy instrumentlardan foydalanish ko‘lamini oshirish zarur. Uzoq muddatli investitsiyalar barqarorligini ta’minlash uchun tarif siyosati, valyuta konvertatsiyasi va davlat kafolatlarining shaffofligini kuchaytirish lozim. Universitetlar, energetika kompaniyalari va xorijiy investorlar o‘rtasida hamkorlik dasturlarini rivojlantirish orqali qayta tiklanuvchi energetika bo‘yicha malakali muhandis va texnik mutaxassislarni tayyorlash maqsadga muvofiq. Yashil elektr energiyasini eksport qilish infratuzilmasini rivojlantirish va mintaqaviy energetika integratsiyasini rivojlantirish O‘zbekistonning uzoq muddatli energetik va investitsiyaviy raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdushukurova, R. (2025, 22 oktabr). O‘zbekistonda “yashil” energiya ishlab chiqarish 9 mlrd kVt/soatga yetdi. Daryo.uz. https://daryo.uz/2025/10/22/ozbekistonda-yashil-energiya-ishlab-chiqarish-9-mlrd-kvtsoatga-yetdi/
2. ACWA Power. (2021). ACWA Power signs agreement for 100MW Uzbekistan wind power project. https://acwapower.com/en/media-center/latest-news/acwa-power-signs-agreement-for-100mw-uzbekistan-wind-power-project/
3. Asian Development Bank. (n.d.). “Nur Navoi Solar” Foreign Enterprise Limited Liability Company: Navoi Solar Power Project (Uzbekistan). https://www.adb.org/sites/default/files/project-documents/53340/53340-001-xarr-en.pdf
4. Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida (O‘RQ-537-son Qonun). LexUZ. https://lex.uz/uz/docs/-4329270
5. Enerdata. (2024, January 23). Uzbekistan targets 27 GW of renewable capacity, 40% in power generation by 2030. https://www.enerdata.net/publications/daily-energy-news/uzbekistan-targets-27-gw-renewable-capacity-40-power-generation-2030.html
6. Gazeta.uz. (2026, 5 yanvar). O‘zbekistonda 2025-yilda quyosh va shamol orqali elektr energiyasi ishlab chiqarish 2 karra ko‘paydi — Energetika vazirligi. https://www.gazeta.uz/oz/2026/01/05/energy/
7. Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida. LexUZ. https://lex.uz/mact/-4664142
8. Masdar. (2023). Nur Navoi solar project: Navoi region, Uzbekistan. https://masdar.ae/-/media/corporate-revamp/projects/downloads/uzbekistan/2023/nur-navoi-solar-project_en.pdf
9. Masdar. (2025, November 11). Masdar signs landmark agreement for Uzbekistan’s largest standalone battery energy storage project. https://masdar.ae/en/news/newsroom/masdar-signs-landmark-agreement-for-uzbekistans-largest-standalone-battery-energy-storage-project
10. Nurberdiyev, S. (2022, September 14). Quyosh va shamol elektr stansiyalarini xarid qilganlik uchun kompensatsiya to‘lanadi. NORMA.UZ. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/quesh_va_shamol_elektr_stanciyalarini_harid_qilganlik_uchun_kompensaciya_tulanadi
11. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi. (2026, 14 May). Kun raqami: “Yashil” energiya 4 mlrd kVt·soatga yetdi — bu o‘tgan yilning mos davridagidan 29%ga ko‘p. https://gov.uz/oz/minenergy/news/view/165913
12. “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ. (2026, 1 yanvar). 2025-yilda elektr energiyasini ishlab chiqarish. https://www.uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/7945
13. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida (O‘RQ-539-son Qonun). LexUZ. https://lex.uz/ru/docs/-4346831
14. Spot. (2026, 3 yanvar). O‘zbekistonda elektr energiyasi ishlab chiqarish 6%ga, quyosh va shamol generatsiyasi esa ikki baravarga oshdi. https://www.spot.uz/oz/2026/01/03/electricity-generation/
15. The Caspian Post. (2025, June 23). Saudi’s ACWA Power expands into Uzbekistan’s green energy sector. https://caspianpost.com/energy/saudi-s-acwa-power-expands-into-uzbekistan-s-green-energy-sector

16. UzDaily. (2020). Uzbekistan plans to build photovoltaic power plants in the country with a total capacity of 5,000 MW. https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistan-plans-to-build-photovoltaic-power-plants-in-the-country-with-a-total-capacity-of-5000-mw/
17. UzDaily. (2026, 13 fevral). O‘zbekistondagi quyosh va shamol elektr stansiyalari 2026 yilda 1 mlrd kVt· soat “yashil” energiya ishlab chiqardi. https://www.uzdaily.uz/uz/ozbekistondagi-quyosh-va-shamol-elektr-stansiyalari-2026-yilda-1-mlrd-kvtsoat-yashil-energiya-ishlab-chiqardi/
18. UzDaily. (2026, January 15). Masdar secures international financing for new renewable energy project in Uzbekistan. https://www.uzdaily.uz/en/masdar-secures-international-financing-for-new-renewable-energy-project-in-uzbekistan/
19. UZ24. (2026, 10 iyun). O‘zbekistonda bir milliard kVt/soat “yashil” energiya ishlab chiqarish 24 kunga tushdi. https://uz24.uz/uz/articles/green-26-6-10
20. Yuz.uz. (2024, 21 oktabr). O‘zbekistonda quyosh va shamol elektr stansiyalari 4 mlrd kVt·soat elektr energiyasi ishlab chiqardi. https://yuz.uz/uz/news/ozbekistonda-quyosh-va-shamol-elektr-stantsiyalari-4-mlrd-kvtsoat-elektr-energiyasi-ishlab-chiqardi
21. Газета.uz. (2025, 12 марта). Voltalia заключила долгосрочное соглашение о продаже электроэнергии в Узбекистане. https://www.gazeta.uz/ru/2025/03/12/voltalia-uzbekistan/